

Dunyoning taniqli fizik olimlari Samarqandda to`plandi

“Katta adron kollayderida o`tkazilayotgan fizik tadqiqotlar” mavzusida Xalqaro konferensiya ishtirokchilari 2018 yil 13-sentyabr kuni Samarqand shahriga ham tashrif buyurishdi. Dastlab Samarqand davlat universitetida konferensiyaning navbatdagi sessiyasi bo`lib o`tdi. So`ngra konferensiya ishtirokchilari Samarqand shahrining diqqatga sazovor joylarini borib ko`rishdi. Yurtimizdagi boy tarix va madaniyatga ega shaharlar orasida Samarqandning alohida o`rni bor. Qadimiy va hamisha navqiron, yer yuzining sayqali, Sharq gavhari degan ta`rifu tavsiflarga sazovor bo`lgan bu shahar azaldan ilm-fan, savdo va hunarmandchilik markazi bo`lib kelgan. Bu yerda xalqimizning yuksak aql zakovati, bunyodkorlik salohiyatini butun dunyoga tarannum etgan buyuk siymolar kamol topgan.



Eslatib o`tamiz, Samarqand Davlat universiteti O`zbekistonning eng keksa universitetlaridan biri hisoblanadi. Yadro fizikasi va yadro texnologiyalari sohasidagi ilmiy izlanishlar yadro fizikasi kafedrasida va yadro-fizikasi laboratoriyasida olib boriladi. Mikrotronda olinadigan tezlatilgan elektronlar dastasi, gamma-kvantlar va fotoneutronlar oqimi va 300 metrli yer osti kanali mavjudligi fanning turli yo`nalishlariga, texnika va ishlab chiqarish tarmoqlariga zarur bo`lgan noyob eksperimentlar o`tkazish va jahon miqyosidagi ilmiy natijalar olish imkonini beradi.



